https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maqsudova Feruza Jo‘ravoy qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
feruzaxonmaqsudova72@gmail.com

ANDIJON VILOYATI MUQADDAS QADAMJO NOMLARINING SHAXS NOMI ASOSIDA SHAKLLANISHI (ETNOLINGVISTIK VA ONOMASTIK TAHLIL)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatidagi muqaddas qadamjo nomlarining shakllanish xususiyatlari, ayniqsa shaxs nomi asosida yuzaga kelgan agionimlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadamjo nomlarining kelib chiqishi, tarkibiy-morfologik qurilishi, semantik-motivatsion belgilari hamda etimologik asoslari aniqlanadi. Shuningdek, shaxs nomlarining makon nomlariga aylanish jarayoni onomastik nazariya nuqtayi nazaridan izohlanadi. “Imom ota” ziyoratgohi misolida agionimning etnolingvistik ahamiyati ochib beriladi. Olingan natijalar Andijon viloyati qadamjo nomlari xalqning tarixiy xotirasi, diniy e’tiqodi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: onomastika, agionim, qadamjo, shaxs nomi, ziyoratgoh, Andijon viloyati, etimologiya, etnolingvistika.

FORMATION OF SACRED SHRINE NAMES IN THE ANDIJAN REGION BASED ON PERSONAL NAMES (ETHNOLINGUISTIC AND ONOMASTIC ANALYSIS)

Annotation.This article analyzes the formation features of sacred shrine names in Andijan region, with special attention to agionyms formed on the basis of personal names. The study examines the origin, structural-morphological construction, semantic-motivational characteristics, and etymological foundations of shrine names. The process of transformation of personal names into place names is explained from the standpoint of onomastic theory. Using the example of the “Imom ota” shrine, the ethnolinguistic significance of agionyms is revealed. The

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

results show that the shrine names of Andijan region are closely connected with the historical memory, religious beliefs, and cultural values of the people.

Key words: onomastics, agionym, shrine, personal name, sacred place, Andijan region, etymology, ethnolinguistics.

ФОРМИРОВАНИЕ НАЗВАНИЙ СВЯЩЕННЫХ КУЛЬТОВЫХ МЕСТ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ЛИЧНЫХ ИМЁН (ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ОНОМАСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотатция .В статье анализируются особенности формирования названий священных объектов (кадамджо) Андижанской области, в частности агионимов, образованных на основе личных имён. В ходе исследования рассматриваются происхождение, структурно-морфологическое строение, семантико-мотивационные особенности и этимологические основы названий. Процесс превращения антропонимов в топонимы объясняется с позиций ономастической теории. На примере святилища «Имам ота» раскрывается этнолингвистическая значимость агионимов. Полученные результаты свидетельствуют о тесной связи названий культа с исторической памятью, религиозными представлениями и культурными ценностями населения.

Ключевые слова: ономастика, агионим, кадамджо, личное имя, святилище, Андижанская область, этимология, этнолингвистика.

KIRISH

Til inson hayotining eng muhim aloqa vositasidir. Har bir xalq o‘z tili orqali o‘z tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini ifodalaydi. Tilda shunday sohalar borki, ular xalqning ma’naviy merosi, tarixiy xotirasi va qadriyatlarini aks ettiradi. Shulardan biri – onomastika fanidir. Dunyo tilshunosligida tildagi onomastik birliklar masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu kunga qadar turli tillardagi onomastik birliklarning leksik-semantik, struktur- funksional, derivatsion

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xususiyatlari, tasnifi masalasi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. O‘tgan asrning oxirlariga kelib til tadqiqiga yondashuvlar o‘zgardi, tilshunoslikka antroposentrizm g‘oyalarining kirib kelishi natijasida tilning barcha sath birliklari qatorida onomastik birliklarni ham inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, onomastik birliklarda aks etgan olamning lisoniy manzarasiga tavsif berishda insonning bu birliklar ifoda etgan tushunchalarni qanday idrok etishi, onomastik nom hosil qilishida lingvistik me’yorlar qatorida olam haqidagi bilim va tasavvurlariga suyanishi, jamiyatda shakllangan milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalariga amal qilishi kabi masalalar bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy aloqalar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda amaliy ahamiyatga ega.Muqaddas qadamjolar va diniy-ma’naviy makonlar nomlari ana shunday xalqning tarixiy xotirasi, diniy e’tiqodi va madaniy o‘zligini aks ettiruvchi muhim lingvistik manbalardan biridir. Qadamjo atamasi o‘zbek xalqi an’analarida avliyolar, mashhur diniy arboblar, tarixiy shaxslar yoki muqaddas deb e’tirof etilgan shaxslar bilan bog‘liq muqaddas joylarni anglatadi. Andijon viloyati Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda ko‘plab diniy qadamjolar, ziyoratgohlar, maqbaralar, masjidlar mavjud. Ularning nomlanishi ko‘p asrlik tarixiy, ijtimoiy, diniy va etnolingvistik jarayonlarning mahsuli hisoblanadi..

Toponimik tizimning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan qadamjo nomlari (agionimlar) tilshunoslikda onomastika fani doirasida o‘rganiladi. Bugungi kunda muqaddas joylar nomlarining lingvistik tahlili nafaqat ularning kelib chiqishini yoritadi, balki xalqning mentaliteti, til tafakkuri, etnik madaniyati va diniy qarashlarini ham aks ettiradi. Andijon viloyatidagi qadamjo nomlarini o‘rganish ularning tarkibiy-morfologik qurilishi, semantik qatlamlari, etimologiyasi va nomlashning motivatsion omillarini aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muqaddas qadamjo nomlari turli ilmiy tadqiqotlarda agionimika deb yuritilib, asosan geografiya, tarix, etnologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Dunyo olimlari tadqiqotlarida mazkur mavzudagi turli yondashuvlar asosida o‘rganilogan o‘rinlar talaygina. Muqaddas qadamjo dizayni [1], muqaddas joylarga insonlarning aralashuvi natijasida monumental makonga aylantirilishi, ziyorat yo‘llari bo‘ylab meroslarning qiymati (Roben Komilo), shahidlar maqbarasi, qabrlar, muqaddas joylarga sig‘inish (M. Bacci), muqaddas joyla va qabristonlar marosim landshaftining bir qismi ekanligi [2], muqaddas yer turizmi(Polat and Arslan, 2019) ,qabr toshlardagi shaxs ismlarining mintaqaviy va milliy o‘ziga xoslikni ifoda etishi (Vayta.R), muqaddas suv havzalari, (Bhattacharya *et al.*, 2024), [3], ”Terapevtik makon”(Foley, 2011) kabi ko‘plab qarash va tahlillar fikrimiz dalili bo‘la oladi.

O‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ham toponimikaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Y.G‘.G‘ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, H.Hasanov, F.Abdullayev, Z.Do‘simov, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ishayev, S.Qorayev, T.Nafasov, R.Qo‘ng‘urov, B.O‘rinboyev, N.Begaliyev, N.Uluqovlar tomonidan joy nomlarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, T.Ernazarov, Sh.Qodirova, L.Karimova, T.Rahmatov, S.Gubayeva, Y.Xo‘jamberdiyev, J.Latipov, N.Oxunov, S.Nayimov, N.Mingboyev, A.Zokirov, X.Xolmo‘minov, O‘.Oripov, A.Turobov, Sh.Temirov kabi olimlar joy nomlarini lisoniy jihatdan monografik tarzda tadqiq etganlar. Yuqoridagi ta’kidlab o‘tilgan tadqiqotardan farqli o‘laroq ushbu maqolada muqaddas qadamjolarning nomlarini mavzuiy,strurktur, semantik, etimologik va fonetik jihatdan jamlab tilshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganish, tadqiq etish kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Andijon viloyatidagi qadamjolar bo‘yicha maxsus lingvistik tadqiqotlar nisbatan kam bo‘lib, mavjud manbalarda tarixiy va turizmga oid ma’lumotlar uchraydi. Ushbu maqolada aynan qadamjo nomlarining lingvistik xususiyatlari chuqur va tizimli yondashuv asosida o‘rganiladi.Ushbu jarayonda qadamjo nomlarining kelib chiqishi va tarixiy-etimologik asoslarini aniqlash,agionimlarning tarkibiy-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

morfologik qurilishini tahlil qilish,qadamjo nomlarining semantik-motivatsion xususiyatlarini o‘rganish,nomlarning etnolingvistik mazmunini yoritish, agionimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini asoslash kabi bir qator vazifalar belgilab olindi.

Tadqiqot jarayonida madaniy-antropologik va sotsiologik metodologiyalar asosida ilmiy adabiyotlar tahlili, joylarga tashrif, suhbat, struktur tahlil,etimologik tahlil,semantik tahlil, tarixiy-qiyosiy yondashuv ,etnolingvistik hamda kartografik metodlardan foydalanilmoqda.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Andijon viloyati madaniy meros boshqarmasi mutaxassislarining ta’kidlashicha, viloyatda 422 ta tarixiy va madaniy meros obyektlari ro‘yxatga olingan. Ulardabn 221 tasi arxeologik, 74 tasi me’moriy yodgorliklar, 42 tasi monumental san’at yodgorliklari, 85 tasi diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlar hisoblanadi.

Tadqiqot davomida viloyat bo‘yicha yig‘ilgan ko‘plab qadamjo nomlari o‘rganilganda ularning aksariyati mavzuiy jihatdan shaxs nomi asosida shakllanganligi namoyon bo‘ldi. Shaxs nomi asosida nomlangan ziyoratgohlar muayyan tarixiy, diniy yoki afsonaviy shaxs bilan bog‘liq holda vujudga kelgan bo‘lib, xalq e’tiqodi va xotirasi orqali muqaddaslashgan joylardir. Ular onomastikada agionimlar guruhiga mansub bo‘lib, ular milliy tafakkur, diniy dunyoqarash va etnomadaniy xotiraning muhim ko‘rinishidir. Shaxs nomi asaosida yaratilgan joy nomlari va ularning kelib chiqish sablari haqida ko‘plab tadqiqotchi olimlar qimmatli ma’lumotlar keltirganlar. Jumladan, A.V.Superanskaya, E.Begmatov va B.Qosimovlarning nazariy qarashlari asosidagi fikrlarmizni umumlashtirilgan holda ayta olamizki,shaxs nomi asosida shakllangan ziyoratgohlar o‘zbek onomastik tizimining muhim agionimik qatlamini tashkil etadi. Bunday ziyoratgohlar muayyan tarixiy yoki afsonaviy shaxs nomining makon nomiga aylanishi natijasida vujudga kelib, til, tarix, din va folklorning uzviy aloqasi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Onomastika nazariyasiga ko‘ra,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

antroponimlarning toponimlashuvi nominatsiya jarayonining ikkilamchi bosqichi bo‘lib, bunda shaxs nomi muayyan joyni belgilovchi barqaror nomga aylanadi. Shaxs nomi bilan ziyoratgoh nomlanishining eng yetakchi omili – muqaddas sanalgan shaxsning aynan shu hududda dafn etilganligidir. Islom sivilizatsiyasi ta’siri kuchli bo‘lgan mintaqalarda avliyolar, ulamolar, shayxlar qabri muqaddas maskan sifatida e’zozlanib, ularning nomi makon nomiga aylangan. Bunday holatda qabriston oddiy dafn joyidan sakral obyekt maqomiga ko‘tarilib, ziyoratgoh sifatida shakllanadi. Bu jarayon o‘zbek toponimikasida ko‘plab agionimlar paydo bo‘lishiga olib kelgan.Tasavvuf pirlari, shariat ulamolari, islom targ‘ibotchilari faoliyat olib borgan hududlar vaqt o‘tishi bilan muqaddaslashib, u yerlar mazkur shaxs nomi bilan ataladigan ziyoratgohlarga aylangan. Bu holatda shaxs nomi makonning diniy maqomini belgilovchi asosiy semantik belgi vazifasini bajaradi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Markaziy Osiyodagi ziyoratgohlarning katta qismi aynan diniy shaxslar nomi bilan bog‘liq.

Demak, agionimlarning shaxs nomi asosida shakllanishi ana shu shaxsning qabri aynan shu hududda joylashganligidadir.Boisi xalq orasida avliyo, pir, shayx, sayid, eshon, imom yoki shoh darajasida e’zozlangan shaxslar vafotidan so‘ng ularning qabri muqaddas maskanga aylangan.Bu jarayonda qadamjo aynan o‘sha shaxsning nomi bilan yoki uning unvoni bilan ataladi. Quyida ana shunday muqaddas hisoblangan qadamjo nomlariga namunalar keltirildi:

T/R	Nomi	Joylashgan manzili
1.	“Xo‘ja Abdulloh Tug‘dor” ziyoratgohi	Asaka tumani
2.	“So‘fi ota” ziyoratgohi	Baliqchi tumani
3.	“Qilich Burxon buva” ziyoratgohi	Baliqchi tumani
4.	“Nurvali ota” ziyoratgohi	Baliqchi tumani
5.	“”Teshiktosh ota” ziyoratgohi	Jalaquduq tumani
6.	“Qutayba ibn Muslim” ziyoratgohi	Jalaquduq tumani
7.	Xo‘ja Qambar ota” ziyoratgohi	Izboskan tumani
8.	“Oqmozor ota” – Mavlono Qutbiddin Ahmad” qadamjosi	Izboskan tumani
9.	“Xo‘ja Bosmon ota” ziyoratgohi	Marhamat tunmani
10.	“Mirishkor ota” ziyoratgohi	Marhamat tumani
11.	“Qo‘ychi Xalfa” ziyoratgohi	Marhamat tumani

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

12.	“Havuskon ota” ziyoratgohi	Paxtaobod tumani
13.	“”Xo‘ja taqsim ota” maqbarasi	Paxtaobod tumani
14.	“Fozilmon ota” ziyoratgohi	Xonobod shahri
15.	“Imom ota” ziyoratgohi	Xo‘jaobod tumani
16.	“Jambilbuloq” ziyoratgohi	Ulug‘nor tumani
17.	“ Yunus ota” ziyoratgohi	Qo‘rg‘ontepa tumani
18.	“Qorabosh ota” ziyoratgohi	Andijon tumani
19.	“Asomiddin Mirpo‘stin ota” ziyoratgohi	Andijon shahri
20.	“Mirpo‘sti ota” ziyoratgohi	Andijon tumani
21.	“Bobo tavakkal “ziyoratgohi	Andijon shahri
22.	“Ovushqa ota” zitoratgohi	Paxtaobod tumani

Yuqorida ta’kidlaganimizdek ularning aksariyati shaxs nomi va uning unvoni bilan bog‘liq. “Xususan, “Imom ota” ziyoratgohi avliyo shaxsning unvoni asosida shakllanganm nom hisoblanadi.

Imom ota” ziyoratgohi Andijon viloyati Xo‘jaobod tumanida joylashgan bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi VII asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik g‘or og‘ziga maqbara qurilgan. Insonlar bu muqaddas maqbaraga kelib, jonli so‘yib ehson qiladilar. 1982- yillarda olib borilgan tadqiqotlarda to‘plangan ma`lumotlarga ko‘ra qadimgi bino o‘ymakor naqshlarga ega bo‘lib, kapital ta`mirga muhtoj bo‘lgan. XVIII asrga oid ziyoratxona xonaqoh XIX asr oxirlarida andijonlik Mahmudboy tomonidan qayta ta`mirlangan. 1982-yilda me’moriy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan.1989-yil Xamza kolxozi raisi No‘monjon ummataliyev hamda shayx Ostanaqul Tursunovlar tomonidan maqbara va masjid qayta qurilgan. Andijon viloyati hokimi Shuhratybek Abdurahmonov tashabbusi bilan 2018-2019- yillarda 1milliard 800 million so‘ qayta rewkonstruksiya uchun ajratildi . Ajratilgan mablag‘lar hisobidan ziyoratgoh binosi zamonaviy ko‘rinishga olib kelindi. [4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan [5].

Mazkur qadamjo tog‘li hududda joylashgan. U yerdagi ziyoratgoh islom olamida katta o‘rin tutgan Imom Muhammad Hanafiya nomi bilan atalib kelingan. Tadqiqotchilardan N. Abdulaxonov va V. Azimovlarning “Oltiariq ziyoratgohlari”

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hamda “Nasibnomayi Muhammad Hanafiya” kitoblarida ma`lumot berilishicha, Islom lashkarboshisi Hazrat Alining o‘g‘li Muhammad Hanafiya 1700-yilda vafot etgan. Uning Xurosonni zabt etib, aholisining islomga kirishidagi xizmatlari katta bo‘lganligi uchun “Imomota”, “Xurosonota” nomini olgan. Shuning uchun mazkur joyga “Imom Ota” nomi berilgani aytiladi. Xalq orasidagi rivoyatlarga ko‘ra, O‘rta Osiyoda islom dinining tarqalishiga sabab bo‘lgan bu ulug‘ zot ma`lum sabablarga ko‘ra tog‘ bag‘ridagi g‘orga kirib ketgan va qaytib chiqmagan. Keyinchalik g‘or og‘zida maqbara qurilgan. Shuning uchun u “Yashiringan Eshon”, “G‘oyib bo‘lgan Eshon” nomlarini ham olgan.

Ushbu qadamjoda ziyoratchilar turli marosimlar o‘tkazishadi: Qur`on tilovat qilish. Ushbu marosim islomiy dunyoqarashning asosiy ko‘rinishi bo‘lib, deyarli barcha ziyoratgohlarda uchraydi. Niyat qilish: bu eng ko‘p bajariladigan marosimlardan biri hisoblanib, shifo so‘rash, rizq va baraka tilash, farzand ko‘rish va turmush barqarorligi, safar xavfsizligi, muammolar yechimi kabi xalqona e`tiqod ko‘rinishidagi amallar bajariladi.Ushbu jarayonda qo‘y, qo‘chqor, xo‘roz so‘yilib, non,shirinlik, holva, meva , osh kabilar tarqatiladi. Bundan tashqari, shifo maqsadida tabarruk deb hisoblangan buloq suvidan ichish, ziyoratgoh atrofini tozalash, daraxt ekish kabilar ham amalga oshiriladi. Ziyoratgohda bajariladigan ushbu amallar diniy, xalqona, an`analar va zamonaviy marosimlar sintezidan hosil bo‘lgan. Bu esa xalqimizning madaniy qadriyatlarining an`anaviyligini ko‘rsatadi.

Yuqorida “Imom ota” agionimining etimologiyasi,xususiyatlari, xalq orasidagi talqini haqida aytib o‘tdik. Ushbu nomni lingvistik jihatdan kuzatadigan bo‘lsak, uning arabiy va turkiy so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lganligini ko‘ramiz. Imom so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ oldinda turuvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, rahbar ” ma`nolarini anlatadi, ya`ni diniy yetakchi, shariat ilmini egallagan zot demakdir. “Ota” so‘zi esa qadimdan turkiy tillarda hurmat bildiruvchi unvon, yoshi ulug‘, nuroniy shaxs, avliyo yoki pir maqomiga yetgan inson ma`nolarini ifodalagan. Xalqona ehtirom va muqaddaslik belgisini bildiruvchi bu so‘z “Imom ota” kabi ko‘plab ziyoratgoh nomlari tarkibida uchraydi. Chunki arabcha va turkiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

komponentlarning birikuvi O‘rta Osiyo agionimlarining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Demak, onomastik jihatdan ushbu nom diniy unvon “imom” va hurmat-maqom bildiruvchi “ota” suffiksidan tarkib topgan va “Muqaddas diniy yetakchi sifatida e`zozlangan ota – avliyo” ma`nosini ifodalaydi. Binobarin, ushbu nom yurtimiz hududidagi diniy-ma`naviy merosning muhim qismi bo‘lib, etnolingvistik hamda onomastik tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega.

Jadvalda keltirilgan qadamjo nomlarining morfologik tuzilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning aksari ikki komponentning birikuvidan tashki topganligini ko‘ramiz: shaxs nomi + ota, bobo , buva, hazrat; shaxs nomi+ Shayx, so‘fi shaklida. Bu esa nomlar tarkibida qadimiy turkiy va islomiy an’analarning qatlamlari saqlanib qolganligini hamda ularning nomlanishida diniy motiv,ya’ni shayx, imom, avliyo nomlarini abadiylashtirish motivi yetakchilik qilganligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Andijon viloyati muqaddas qadamjo nomlarining shakllanishida bir necha tarixiy-madaniy qatlamlar o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.nomlarning asosini tashkil etuvchi shaxs nomlari hayotda muhim tarixiy yoki afsonaviy shaxslarning xalq xotirasida qanchalik chuqur o‘rnashganini ifoda etadi. “Ota”, “bobo”, “hazrat”, “pir” kabi unsurlarning keng qo‘llanilishi turkiy xalqlarda qadimdan mavjud kattaga hurmat, ajdodlar xotirasini saqlash kabi qadriyatlarning davomiyligini nasmoyon etadi.

O‘rganilgan nomlar tarkibida arab tilidagi komponentlarning mavjudligi Andijon hududining islom sivilizatsiyasi bilan tarixiy aloqadorligini tasdiqlaydi. Jumladan, “imom”, “so‘fi”, “hazrat” kabi atamalarning qo‘llanishi davrning til va onomastikaga kuchli ta’sir ko‘rsatganidan dalolat beradi. Bu esa tilning ko‘p qatlamli tabiatini, diniy leksikaning antroponim tarkibida faol qo‘llanganligini, keyinchalik esa shu asosda toponimlar tizimiga faol kirib borganini isbotlaydi. Shuningdek, Andijon viloyatidagi agionimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadamjolar nafaqat diniy ziyorat joylari, balki madaniy identitet va hududiy xotira markazlari ham hisoblanadi. Mazkur nomlar orqali hududning tarixiy qatlamlari, diniy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

an'analari va afsonalari avlodlarga yetkaziladi. Shu bois qadamjo nomlari – tarix, madaniyat va tilning kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab onomastik hodisadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda,shaxs nomi asosidagi ziyoratgohlarning nomlanishi unga asos bo‘lgan shaxsning tarixiy shaxsligi va qabrining ana shu hududda joylashganligi bilan, amalga oshirgan faoliyati bilan yoki xalq orasidagi afsona va rivoyatlar bilan, bundan tashqari, shifobaxshlik va karomat e'tiqodi bilan, shuningdek, antroponimlarning toponimlashuvi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangani aniqlandi.

Tadqiqot davomida Andijon viloyati qadamjo nomlarining lingvistik xususiyatlari o‘rganildi va qadamjo nomlari asosan diniy shaxslar, tarixiy voqealar, afsonaviy obrazlarga asoslanishi, ularning morfologik tuzilishi ikki yoki uch komponentli bo‘lib, nomlarning etimologik ildizlari,asosan,qadimgi turkiy, arabcha komponentlar bilan bog‘liqligi aniqlandi.Shuningdek, agionimlarning semantik-motivatsion tizimi xalqning diniy, etnik va afsonaviy qarashlari bilan chambarchas aloqador ekanligi,qadamjo nomlari hududning ma'naviy-madaniy tarixini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanishi o‘z tasdig‘ini topdi. Andijon agionimlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganish mintaqaning diniy-madaniy tarixini chuqurroq anglash, xalqning etno-ma'naviy qarashlarini o‘rganish va o‘zbek onomastikasining hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fuchs, R. (2004) ‘Sites of memory in the Holy Land: the design of the British war cemeteries in Mandate Palestine’, *Journal of Historical Geography*, 30(4), pp. 643–664. Available at: https://doi.org/10.1016/S0305-7488(03)00003-3.

2. Valk, H. (2007) ‘Choosing holy places’, *Journal of Roman Archaeology*, 67, pp. 201–212.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. Abdalaal, A., Saleh, M. and Essam, A. (2024) 'The holy Nile of Egypt', *The Nile River System, Africa: Ecohydrology and Management from Catchment to Coast*, pp. 149–176. Available at: https://doi.org/10.1016/B978-0-323-90122-2.00003-6.

4. Z.M. Bobur nomidagi axborot-kutuboma markazi axborot-bibliografiya xizmati. Ko'hna Andijjonnning tarixiy obidalari va ziyoratgohlari.— 2024.(Information and Library Center named after Z. M. Babur, Information and Bibliographic Service. *Historical Monuments and Shrines of Ancient Andijan*. — 2024.)

5. „Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori". *Lex.uz*. ("Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 846 of October 4, 2019, On Approval of the National Register of Immovable Objects of Tangible Cultural Heritage." – Lex.uz.)

6. Суперанская А. В. *Общая теория имени собственного*. — Москва: Наука, 1973. (Superanskaya, A. V. *General Theory of the Proper Name*. — Moscow: **Nauka**, 1973.)

7.Begmatov E. *O'zbek onomastikasi masalalari*. — Toshkent: Fan, (1984. Begmatov, E. *Issues of Uzbek Onomastics*. — Tashkent: **Fan**, 1984.)

8. Qosimov B. *O'zbek tili tarixiy onomastikasi*. — Toshkent: Universitet, 2002. (Qosimov, B. *Historical Onomastics of the Uzbek Language*. — Tashkent: **Universitet**, 2002.)